

## O‘ZBEKISTONDA XALQARO DARAJADA TOG‘ TURIZMINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

**Qo‘shbakova Soxiba Jahongir qizi**

Jizzax davlat pedogogika universiteti 2 kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro tog‘turizmini rivojlantirish tajribasini o‘rgangan xolda O‘zbekiston va zamonaviy tog‘ turizmini yanada rivojlantirish uchun muhim yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** Turizm, iqtisodiy, siyosiy va tabiiy omillar, tabiiy va madaniy ob‘ektlar, turistik oqim, turistik marshrut, tog‘ turizm sanoati, tekislik-tog‘.

### FACTORS OF FORMATION OF MOUNTAIN TOURISM AT THE INTERNATINOANAL LEVEL IN UZBEKISTAN

#### ABSTRACT

This article, while studying the experience of international mountain tourism development, shows the important directions for the further develepment of modem mountain tourism in Uzbekistan.

**Key words:** Tourism, economic, politica and natural factors, natural and cultural objects, tourist stream, tourist route, mountain tourism industry, plain- mountain

Butun dunyoda ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy moliyaviy manbaga aylangan tog‘ turizmi sohasi bo‘lib, xalqaro maqomda juda tez o‘sib bormoqda, lekin ular notekis taqsimlanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xalqaro tog‘ turizmni rivojlantirishda iqtisodiy, siyosiy va tabiiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, tog‘ turizm dunyodagi yagona amaliy soha bo‘lib, tog‘

tabiatidan unumli foydalanish orqali davlatlar iqtisodiy katta yutuqlarga erishishi,shu bilan birga aholi salomatligi,hordiq chiqarishi va dam olishi uchun eng manfaatli soha ekanligi qayd etilgan.

Tog‘ turizmini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy balki ekologik jihatidan yagona antropogen ta’sir etilmaydigan hudud sifatida tavsiflanadi.Zero,Tog‘ turizmini rivojlantirish orqali mintaqalar kesimida tabiiy landshaftlar yaxlitligini saqlab qolish mumkin.

Bugungi kunda 140 dan ortiq dunyo mamlakatlarida xalqaro turizm markazlari shakllanib ulgurgan bo‘lsada tog‘ turizmi ayrim mamlakatlargagina tegishlidir. Xalqaro tog‘ turizm iqtisodiy faoliyat turlaridan biri sifatida mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlik va iqtisodiy faoliyatning muhim jihati sifatida ham ko‘zga tashlanadi. Bilamizki,chet el sayyohlik agentliklari ekzotik tabiatni juda qadrlaydi. Shu tufayli tog‘ geografik ob’ektlari yoki suv havzalariga ega tog‘li hududlarni asrash, ularni keng reklama qilish hamda ulardan maksimal darajada foydalanish davr talabi.

Xalqaro ekspertlar tog‘ turizmi togli hududlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini tan olishgan. Kelajakda turizmning yangi turlaridan biri bo‘lgan to‘g turizmida jahon sayyohlik oqimining o‘rishini nafaqat rivojlangan mamlakatlarda balki, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham birdek paydo bo‘lishiga olib keladi.Bunga esa birgina tabiiy omil va yetarlicha investitsion oqim harakatlari bo‘lsa bo‘ldi. 2015 yilda, tog ‘turizm sanoati butun dunyo bo‘ylab 338 million kishini jalb etdi va yillik daromad 7,2 trillion dollarni tashkil etdi.Hozirgi vaqtda yevropaliklarning 48% dan ortig‘i tog‘li hududlarda dam olishni afzal ko‘radi. Turli xil geografik xususiyatlarga ega ta’sirchan tabiatni kesib o‘tadigan marshrutlar sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otadi. Masalan, Yaponiyada "tezyurar poyezdlar tizimi" mamlakatni baland tog‘li yirik shahar markazlari bog‘laydi.Shveysariyada ham trolleybuslar tog‘ muzliklari joylashgan markazlar shaharni bog‘laydi.Yuqori tezlikda harakatlanadigan Glacier (Montana, AQSH) va Isfildga poyezdlar Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Parkway milliy bog‘i, Kanadadagi Banff va Jaysper milliy bog‘lari orqali qatnaydi.Osiyoda,

Qora dengiz avtomobil yo‘li, Pokiston va Xitoyda strategiya va mudofa maqsadida qurilgan tog‘ yo‘li xam xalqaro to‘g‘ turizmni rivojlantirish ma‘lum darajada yordam berdi.

Tog‘ turizmida turistik mavsumda qisqa vaqtga bo‘lsa-da adamlar tabiat qo‘ynida yashash va dam olishni avfzal biladi va bu orqali iqtisodiyotga ta‘sir qiladi. Misol uchun, Alp tog‘larida qishki turizm juda foydali va qulay. Qishda sayyohlar Yozga qaraganda 2 barobar ko‘p. Kelajakda O‘zbekiston tog‘larining ob‘ektlarida sayyohlik va dam olish ana shunday xalqaro ahamiyatga ega bo‘lishi o‘rganilib chiqildi. Ayniqsa maftunkor tog‘larga Samarqand, Buxoro, Qo‘qon manzaralari va boshqa shaharlar ko‘plab xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Xususan, tog‘li va tog‘oldi O‘zbekiston hududlarida bebaho va hozirgacha kam o‘rganilgan shifobaxsh mineral suvlar, salomatlik uchun zarur ob‘ektlardan biri bo‘lgan 60 dan ortiq mineral buloqlar mavjud bo‘lgan O‘zbekiston tog‘li hududlarida topilganligi bunga yaqqol dalildir. Oltingugurtli suvlar keng tarqalgan Farg‘ona va Surxondaryo vodiylarida esa butun dunyoga mashhur oltingugurtli suvlaridan Kavkaz (Sochi, Matseta va boshqalar) mintaqasi davolash uchun foydalanayotgan kabi foydalanilsa maqdadga muvofiq bo‘ladi. Hozirda O‘zbekistonda Farg‘ona, Zarafshon, Turkiston va boshqa tog‘ tizmalari etaklaridan ana shunday tog‘ turizmi maskani sifatida foydalanish uchun qulay tabiiy omillarga ega. Afsuski, tog‘li hududlaridagi boy sayyohlik va dam olish resurslar O‘zbekiston amalda qo‘llanilmaydi. Buning asosiy sabablari turistik bazalarining va mehmonxonalar etishmasligi, shuningdek, transport infratuzilmasi kam rivojlanganligidir.

Shuni ta‘kidlash kerakki, O‘zbekistonning tog‘li qismidan xalqaro munosabatlarda turizm va rekreatsion resurslardan samarali foydalanish uchun turli turistik imkoniyatlarni (texnik vositalar mehmonxonalar, lager, restoranlar va boshqalar) "tekislik-tog‘" turistik marshrutlar tizimini ishlab chiqish lozim. Shunga ko‘ra Biz quyidagi "tekislik-tog‘" marshrut yo‘nalishlarni taklif qilamiz, bu xalqaro o‘choq bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda tog‘ turizmi: I. rivojlanishining birinchi

markazi O‘zbekistonda xalqaro tog‘ turizmi da joylashgan Zomin daryosi havzasi Turkiston tizmasining shimoliy yon bag‘ri.

II. Samarqand – Omonqo‘ton g‘or yo‘nalishi. Xalqaro turistik diqqatga sazovor noyob turistik hududlardan biri Zarafshon tog‘lari hisoblanadi. Turizmning ayrim sohalarini rivojlantirishda 30 dan ortiq g‘orlar va minglab karst tunnellari katta imkoni beradi.

III. Samarqand - Kamangaron yo‘nalishi. Boshqa marshrutlardan eng noyobi cht ellik sayyohlar uchun super ekzotik landshaft - qirg‘izlar plato, Zarafshon tizmasining 2200-2300 m balandlikda joylashgan, Samarqandning 50 km janubida ajoyib ohaktoshdan iborat bo‘lgan platolar, ekstensiv, intensiv va klassik turdagi Markaziy Osiyoning karst jarayonlari tufayli bunyod bo‘lgan 3000 dan ortiq karst tunnellari, shuningdek, 5 ta gorizonta g‘or, 56 quduq va minalar, eng chuqur g‘ori (chuqurligi 1080 m va katta suv yig‘uvchi ko‘lga ega) ayniqsa diqqatga sazovordir.

Agar bu imkoniyatlardan to‘liq foydalansa, O‘zbekistonga xar yili 10-15 million xorijiy va mahalliy sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shunga ko‘ra O‘zbekistonda turizm sanoatining tog‘ turizmi sohasi uchun ham islohotlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Alibekov L, Alibekova S, Hazarov I, Gudalov M. Markaziy Osiyodagi degradatsiya geotizimlarining ayrim qonuniyatlari haqida. Tatranka Javorina, Slovakiya, 2012 yil, 21-jild, № -1, 42-44
2. Gudalov M. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining asoslari va ularning ekologik landshaftga ta‘siri. Tabiat va fan. 17-jild, 11-son, 2019-yil 25-noyabr, AQSh Nyu-York.
3. Gudalov M., Zikirov B. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi atrofidagi landshaftlarni o‘rganish metnodlari. Tadqiqot va ishlanmalar uchun xalqaro muhandislik jurnali. 5-jild, 7-son, 2020-yil Hindiston.

4.Gudalov M., Zikirov B., Imamova D. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi atrofidagi obodonlashtirish o‘zgarishlarini bashorat qilish. The American of Engineering and Technology jurnalida tasdiqlangan. Jild - 02, soni - 10, 2020 yil oktyabr.

5.Gudalov M., G‘ozieva M. Zomin havzasida zamonaviy ekoturizmni rivojlantirish yo‘llari. Tadqiqot va ishlanmalar uchun xalqaro muhandislik jurnali. 5-jild, 7-son, 2020-yil Hindiston.

